



IQLIM O'ZGARISHI VA EKOLOGIK ONGNING ISTE'MOLCHI  
XATTI-HARAKATIGA TA'SIRI

*Ustoz: Raxmatullayev Umarbek .*

*Shogirid: Ahmedova Rayxon.*

*Toshkent davlat iqtisodiyot*

*Universiteti To'rtko'l fakulteti 2 - kurs talabasi .*

**Anatatsiya :** global ekologik muammolar, ularning paydo bo'lish sabablari, oqibatlar va insoniyat uchun xavfli bo'lgan jihatlari o'rganilgan. Atrof-muhitning ifloslanishi, iqlim o'zgarishi, suv resurslarining tanqisligi va iqlim o'zgarishining ayollar sog'ligiga ta'siri kabi muammolar tahlil qilinadi

**Kalit so'z :** Ekologik muammolar, ifloslanish, iqlim o'zgarishi, ayollar sog'ligi, suv resurslari tanqisligi, barqaror rivojlanish.

O'zbekiston ham iqlim o'zgarishining salbiy oqibatlariga duch kelgan davlatlar qatoriga kiradi. Mamlakat bir qancha, jumladan, haroratning ko'tarilishi, yog'ingarchilikning o'zgarishi, qurg'oqchilik va suv resurslarining kamayishi kabi muammolarga duch kelmoqda. Bu holatlar qishloq xo'jaligi, suv ta'minoti va aholi turmush tarziga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Iqlim o'zgarishi faqatgina tabiatga emas, balki ayollarning eng zaif guruhlari - nogironlar, migrantlar, keksalar va qishloq aholisiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Iqlim o'zgarishi ayollarga jinsiga qarab emas, balki ijtimoiy-iqtisodiy, yosh va sog'liqqa bog'liq zaiflik darajasi bo'yicha nomutanosib ravishda ta'sir qiladi. Bu ta'sirlar to'g'ridan-to'g'ri sog'liqqa (issiqlik, oziq-ovqat tanqisligi, kasalliklar) va bilvosita (migratsiya, ijtimoiy ta'sirlar) ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa,



ayollarning qishloq xo'jaligi va suv resurslariga bog'liqligi tufayli iqlim o'zgarishining kuchli ta'siriga duch kelishi mumkin

### Iqlim o'zgarishining ayollarga ta'siri

Iqlim o'zgarishi ayollarning eng zaif toifalariga – nogironlar, migrantlar, qariyalar va qishloq aholisiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ayollar erkaklarga qaraganda iqlim o'zgarishi ta'siriga nisbatan ko'proq himoyasiz. Bu, birinchi navbatda, butun dunyoda ayollar, erkaklardan farqli o'laroq, ularning iqlim o'zgarishiga moslashish qobiliyatini oshirishi mumkin bo'lgan yer, kredit, qishloq xo'jaligi resurslari, qaror qabul qilish tuzilmalari, texnologiya, ta'lim xizmatlari kabi resurslardan kamroq foydalanish imkoniyatiga ega ekanligi bilan bog'liq.

### Iqlim o'zgarishining sabablari va global jihatlari

Iqlim o'zgarishi asosan inson faoliyati natijasida yuzaga keladigan quyidagi omillar bilan bog'liq:

Issiqxona gazlari chiqindilarining ortishi – sanoat va transportdan atmosferaga chiqarilayotgan karbonat angidrid ( $\text{CO}_2$ ) va metan ( $\text{CH}_4$ ) miqdorining ko'payishi.

O'rmonlarning kesilishi – tabiiy filtr sifatida xizmat qiladigan o'rmonlarning kamayishi natijasida  $\text{CO}_2$  ning havoda saqlanib qolishi.

Qishloq xo'jaligi faoliyati – pestitsid va o'g'itlarning haddan tashqari ishlatilishi tuproq va suv resurslariga zarar yetkazadi.

Energetika sektorining ifloslanishi – ko'mir va neft mahsulotlaridan foydalanish global isish jarayonini tezlashtiradi.

### Havo ifloslanishi

Toshkent shahri havoning yuqori ifloslanish darajasi bo'yicha dunyoda oldingi o'rinlardan birini egallaydi. IQAir ma'lumotlariga ko'ra, Toshkentda

havo ifloslanishining eng yuqori nuqtasi 2024 yil fevral oyida qayd etilgan boʻlib, PM2,5 zarrachalarining konsentratsiyasi JSST tavsiya etgan meʼyordan 39 baravar yuqori boʻlgan. Bu nafas yoʻllari kasalliklari va allergik kasalliklarning koʻpayishiga sabab boʻlmoqda. Ayniqsa, homilador ayollar va bolalar bu jarayondan koʻproq aziyat chekmoqda.

**Orol dengizining qurishi** – Markaziy Osiyodagi eng ogʻir ekologik fojealardan biri. Hududdagi aholining yashash sharoitlarini tasavvur qilganda, quyidagi manzaralar inson koʻz oldia keladi

**Qurigan dengiz tubi:** Suvsiz qolgan keng maydonlar, tuz va qum bilan qoplangan sargʻish yerlar. Sobiq baliqchilar qishloqlarida kemalarning chirib yotgani, ulkan yoriqlar bilan qoplangan quruq zamin.

**Chang-toʻzon va ekologik muammolar:** Orolboʻyi hududida tez-tez yuz beradigan chang-toʻzonlar, shamolda koʻtarilgan shoʻr qum havoni bulutdek qoplaydi. Havo iflos, koʻrish masofasi kamaygan, baʼzi odamlar nafas olish uchun niqob taqib yurishadi.

**Qiyin yashash sharoitlari:** Suv tanqisligi sababli ichimlik suvi sifati yomonlashgan. Tuproq shoʻrlangan, dehqonchilik va chorvachilik qiyinlashgan. Koʻpchilik ish topish maqsadida boshqa hududlarga koʻchib ketgan, qishloqlar qisman tashlandiq holg

**Aholining kurashi:** Odamlar ogʻir sharoitga moslashishga harakat qilishmoqda. Bolalar chang va shoʻr havoda oʻynashadi, kattalar esa suv yetishmovchiligi va iqtisodiy qiyinchiliklarga qaramay, hayotini davom ettirishga harakat qilishadi. Baʼzilar ekologik muammolarni yengish uchun daraxt ekish yoki suv tejovchi texnologiyalar joriy qilish kabi tashabbuslar bilan

shugʻullanmoqda. Suv — hayot manbai. Uning qiymati dunyo globallashuvi jarayonida yanada yaqqol namoyon boʻlmoqda. Zero, suvsiz hayot yoʻq. Suv tiriklik evolyusiyasiga ham, atrof-muhit, iqlim oʻzgarishlariga ham million yillardan buyon beqiyos taʼsir koʻrsatib kelayotgan obi hayotdir. Shunday ekan, insoniyat uni koʻz qorachigʻidek asrashi shart.

Qayd etish joiz, hozirgi paytda suvga boʻlgan talab va ehtiyoj har qachongidan tobora ortib bormoqda. Natijada butun dunyoda suv tanqisligi kuzatilyapti. Ushbu dolzarb masala Markaziy Osiyo mintaqasini ham chetlab oʻtgan yoʻq. Mutaxassislarning hisob-kitoblariga koʻra, 2050 yilgacha suv resurslari Sirdaryo havzasida 5 foizgacha, Amudaryo havzasida 15 foizgacha kamayishi kutilmoqda. Boshqa tomondan esa, aholining oʻsishi hisobiga,

Oʻzbekistonda 2030 yilga borib, suvga boʻlgan talab 7 mlrd. kub metrغا yetishi, 2050 yilga borib esa, bu koʻrsatkich ikki barobarga ortishi mumkin.

Shularni inobatga olib, soʻnggi yillarda mamlakatimizda suv resurslaridan foydalanish tubdan isloh qilinmoqda. Asosiy masala — suvdan oqilona va samarali foydalanish, sugʻoriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilashga qaratilgan. Binobarin, Prezidentimizning saylovoldi dasturida ham suv resurslarini tejashga alohida eʼtibor berilib, 2030 yilga qadar respublikamizdagi sugʻorma dehqonchilik qilinadigan barcha ekin maydonlarini toʻliq suv tejaydigan texnologiyalarga oʻtkazish, sohaga bozor mexanizmlarini keng tatbiq etish, suv tejaydigan texnologiyalarni joriy etgan fermer va dehqonlar uchun ragʻbatlantirish mexanizmlarini yanada koʻpaytirish choralari koʻrilishi belgilandi.

**Barqaror rivojlanish** – kelajak avlodlarning oʻz ehtiyojlarini qondirish qobiliyatiga ziyon yetkazmagan holda, hozirgi avlodning ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan insoniyat taraqqiyotining samarali yoʻnalishidir. Maqsad – yashash sharoitlari va resurslar inson ehtiyojlarini qondirgan holda, sayyoramizning yaxlitligini xavf ostiga qoʻymasdan, jamiyat yaratishdir.



Iqtisodiyot, atrof-muhit va ijtimoiy farovonlik ehtiyojlari o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash barqaror rivojlanishning asosiy maqsadi hisoblanadi.

Xulosa.

O'zbekistondagi iqlim o'zgarishi va suv tanqisligi shunchaki ekologik muammo emas, balki ijtimoiy inqirozdir. Bu jarayon resurslardan foydalanish imkoniyati cheklangan **ayollar, qishloq aholisi va nogironligi bor shaxslar** hayotiga eng og'ir zarba bermoqda.

Orol fojiasi va havo ifloslanishi kabi tahdidlarni bartaraf etish uchun faqat texnologik yechimlar (suvni tejash, yashil energiya) yetarli emas. Asosiy yechim — **barqaror rivojlanish** tamoyillariga o'tish, ya'ni resurslarni kelajak avlod uchun asrash va iqlimga moslashish jarayonida ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarning manfaatlarini ustuvor deb bilishdir.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR .

1. [www.stat.uz](http://www.stat.uz) - O`zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo`mitasi [rasmiy sayti](http://www.stat.uz).

2. [www.lex.uz](http://www.lex.uz) – O`zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.

3. Salimov B.T., Muxitdinova U.S., Mustafakulov Sh.I., Salimov B.B. Mikroiqtisodiyot. Darslik. –T.: TDIU

4. Нуриев Р.М. Курс микроэкономики: учебник/ 2-е изд. – М.: Норма,

5. [wikipedia.org](http://wikipedia.org)

